ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY MATNNING PRESUPPOZITIV TAHLILI

Xujamkulova Maxbuba Bobonazarovna,
O'zbekiston Milliy universiteti
jurnalistika va o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsent v.b.

Pragmalingvistik tahlilning asosiy tushunchalaridan biri presuppozitsiyadir. Tilshunoslikka kirib kelgan presuppozitsiya termini ham pragmalingvistikaning tahlil tayanch tushunchalaridan hisoblanadi. Presuppozitsiya tushunchasi, dastlab, falsafada, yuzaga kelgan bo'lib, G.Frege uni ilmiy amaliyotga kiritgan; keyinchalik presuppozitsiya lingvistikaga kirib keldi va Ch.Fillmor, A.Svika, G.Gabriel, J.Lakoff, N.Xomskiy, E.Kinen, V.A.Zveginsev, N.D.Arutyunova va boshqa bir qator olimlar tomonidan o'rganildi va o'rganilmoqda[1]. Shuningdek, presuppozitsiya sodda gap bilan qo'shma gap o'rtasida nomutanosiblikni ko'rsatib beruvchi pragmatik tushunchalardan biri hisoblanadi. Presuppozitsiya **«**sodda gap tarkibidagi grammatik shakllar orqali ifodalanib, sodda gapni semantik murakkablashtirib beradi**»**[2].

Presuppozitsiya shaklan soddalashgan sintaktik birliklarni mazmunan murakkablashtiradigan omildir. Bu jihatdan sodda gapning grammatik qoliplari uning semantik mundarijasi bilan o'zaro nomuvofiqdir. Demak axborot uzatish jihatiga ko'ra, sodda gaplarning presuppozitsiyasi qo'shma gaplar propozitsiyasiga son jihatdan tengdir. Masalan, *Mahmud javob berdi.* (T. Malik) propozitsiyasi o'z-o'zidan Asadbek so'radi degan ikkinchi propozitsiyani talab qiladi. Bu sintaktik birliklar Asadbek so'radi va Mahmud javob berdi qo'shma gapiga teng.

Ma'lumki, ushbu termin dastlab falsafaning tadqiq obyekti sifatida talqin qilingan bo'lsa-da, gap qurilishi va lisoniy birliklarning o'rni presuppozitsiya uchun muhim ahamiyatga ega. G.Yul presuppozitsiyaning **«**gap tarkibidagi ma'lum lug'aviy birliklar va sintaktik tuzilmalar bilan bog'liqligini izohlab, uni leksik va strukturaviy presuppozitsiyalarga ajratadi**»**[3]. Xususan, tilshunos Sh.Safarov **«**kontrfaktiv presuppozitsiya uchun murakkab tarkibli nutqiy tuzilmalar lozim**»**[4]ligini aytib o'tib, murakkab sodda gaplar va qo'shma gaplarga ishora qiladi. V.Gak ham presuppozitsiyaning uch turidan bittasini lingvistik presuppozitsiya deya tasniflaydi va so'zlovchilarning tilni bilish, uni lisoniy qonuniyatlar asosida qo'llay olishni ushbu turning ta'rifi sifatida izohlaydi[5]. A.Nurmonovlar ham lingvistik presuppozitsiya bilan mantiqiy presuppozitsiyaning farqli jihatlarini ko'rsatib bergan[6]. Ko'rinadiki, har qanday propozitsiyaning presuppozitsiyasini aniqlashdan oldin avvalo o'sha propozitsiya ma'lum til qonuniyatlari asosida sodda yoki qo'shma gap sifatida shakllangan bo'lishi kerak. Aytib o'tganimizdek, presuppozitsiya shaklan soddalashgan sintaktik birliklarni mazmunan murakkablashtiradigan omildir. Bu jihatdan sodda gapning grammatik qoliplari uning semantik mundarijasi bilan o'zaro nomuvofiqdir. Demak, axborot uzatish jihatiga ko'ra, sodda gaplarning presuppozitsiyasi qo'shma gaplar propozitsiyasiga son jihatdan tengdir. Har qanday sodda gapda presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalar, ayniqsa, leksik ma'noga ega bo'lmagan yordamchi so'zlar, olmoshlar, ravishlar, o'xshatishli qurilmalar ishtirok etadigan bo'lsa, o'sha gap mazmuniy jihatdan murakkab bo'ladi[7].

Presuppozitsiya atamasiga juda ko'p olimlar tomonidan turlicha ta'rif berib kelinadi. Jumladan, bu atama G.Frege ta'rifida «gapda ifodalangan hukmning tabiiy asosi» deya ifodalansa, N.D.Arutyunova uni «bilishning umumiy xazinasi» deb izohlaydi, G.V.Paducheva esa «oldindan bilishning jami» kabi ta'riflar bilan keltiradi[8]. Presuppozitsiya gapda ishtirok etayotgan bo'laklar orqali ifodalangan ma'no emas, balki zohiriy ma'no ostidagi qo'shimcha – botiniy ma'no[9].

[1] Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап. ЎТА. 1986. № 6. – Б. 28.
[2] Нурмонов А., Маҳмудов Н. Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Ўз.РФА. – Тошкент: Фан, 1992. – Б.113.
[3] Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford Univ. Press, 1996. – P. 138.
[4] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 115.
[5] Гак В. Г. Теоретическая грамматика французкого языка. Синтаксис. – М., 1981. – С. 14.
[6] Нурмонов А. ва б. Ўша манба. – Б.115.
[7] Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси.номзодлик дисс. – Самарқанд, 1994. – Б. 2.
[8] Бу ҳақда қаранг: У. Тагмаъно ва песуппозиция // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2005. №5. – Б. 29.
[9] Раҳимов У. Ўша манба.

O‘zbek tilshunosligida taniqli o‘zbek tilshunoslari A.Nurmonov, N.Mahmudov, M.Hakimov, Z.Burxonov, U.Rahimov tadqiqotlarida presuppozitsiya hodisasi bo‘yicha qilingan ishlarni ko‘rishmiz mumkin. Presuppozitsiyada barcha uchun tushunarli bo‘lgan propozitsiya haqida gap ketadi. Ya’ni propozitsiya jumlalarining ma’nosi barchaga tushunarli bo‘lishi mumkin, ammo presuppozitsiya hammaga ham aniq bo‘lavermaydi. Jumladan, «...nutqiy kommunikatsiyaning to‘g‘ri va real amalga oshishi uchun kommunikantlar nutq momentiga qadar muayyan faktlar bilan tanish bo‘lishi, umumiy vaziyat bilan bog‘liq muayyan bilim – xabardorlikka ega bo‘lishlari lozim. Ana shu faktlar, bilimlar tilshunoslikda presuppozitsiya nomi bilan umumlashtiriladi»[1]. O‘zbek tilida presuppozitsiyani ifodalovchi grammatik vositalar quyidagilar: a) leksik vositalarning fakultativ ma’no komponentlari; b) *hatto, faqat, yolg‘iz, -gina (-gina emas), ham, tag‘in, yana* yuklamalari; v) *bo‘lsa, esa bog‘lovchi vositalari*; g) *tashqari, boshqa, o‘zga, bilan birga, o‘rniga* ko‘makchilari.

Tilshunos olim A.Nurmonov ushbu pragmatik terminni «...presuppozitsiya logik va semantik tushunchalar bo‘lib, logika va sintaktikaning o‘rganish obyektidir, ...sintaktik konstruksiyalarda propozitsiyalarning biri shu suppozitsiya orqali anglashiladi»[2] deya ta’riflaydi. Shuningdek tilshunosning fikricha, «...sodda gap tarkibidagi ayrim so‘zlar va grammatik shakllar ham alohida presuppozitsiya ifodalab, shu sodda gapni semantik murakkablashtirishi mumkin»[3].

Pragmatikaning asosiy vazifalaridan biri, tilshunoslikning yangi sohasi sifatida nutq subyektining ichki maqsadi bilan bog‘liq yashirin propozitsiyalar va ulardagi presuppozitsiyalar (voqelikning bayon qilinishi va uning yashirin, ichki imkoniyatlari) ni tadqiq etadi. Masalan, *Onamning jahli chiqqanini kamdan-kam ko‘rardim (O‘.Hoshimov «Dunyoning ishlari»).* Ushbu voqelanish aniq propozitsion holat. Bunda yashirin presuppozitsiya mavjud *(Onamning jahli uncha-bunchaga chiqmasdi).* Propozitsiya nutqda yashirin, ichki maqsadni ochib berishga yordam beradi. Presuppozitsiya til birligining nutqiy vaziyat hamda nutq egalarining til ko‘nikmalari bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik xususiyat bo‘lib, mohiyatan gap qurilishi asosida yotuvchi yashirin hukmning tashqi ishoraga asoslangan ko‘rinishi hisoblanadi. Demak, lingvistik presuppozitsiyani gapda lisoniy vositalar ishorasi asosida yashirin ifodalanuvchi axborot tarzida baholanishi asosli[4]. Tilshunoslikda presuppozitsiya ham grammatik, ham logik jihatdan informatsiyani ifodalaydi. Masalan, *Ana u shlyapa kiygan sotuvchidan so‘radim.* **(**sotuvchining shlyapasi bor). Pragmalingvistik tahlilning asosiy tushunchalaridan biri presuppozitsiyadir. Sintaktik konstruksiyalarda propozitsiyalarning biri shu konstruksiyalarning predikativ markazi orqali, ikkinchisi esa presuppozitsiya orqali anglashiladi (A.Nurmonov). Shuning uchun matn ichidagi propozitsiyalarning, ayniqsa, presuppozitsiya orqali anglashiladigan yashirin propozitsiyani o‘rganish presuppozitsiyaning tilshunoslikning pragmatika sohasi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shuningdek, presuppozitsiyaning asosiy maqsadi nutq subyekti bilan bog‘liq holda uning aniq va yashirin maqsadi, nutqiy axloq tiplari, so‘zlovchining o‘z xabariga o‘z munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Kommunikativ birliklarning pragmatik tahlilida presuppozitsiya tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xabar mazmunidagi birgina propozitsiyadan iborat bo‘lgan sintaktik qolip nutqda «jon»langanda adresat va adresant uchun ma’lum bo‘lgan bir nechta informatsiyani anglatishi mumkin.

Presuppozitsiyalar vositasidagina ayni gap tiplarining semantikasi va kommunikativ qimmatini konkret va haqqoniy baholash mumkin[5]. Presuppozitiv jihatdan, ayniqsa, darak gaplar va ritorik so‘roq gaplarning presuppozitsiyasi mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo‘ladi. Masalan, *Men nechun sevaman O‘zbekistonni? (Men O‘zbekistonni sevaman).*

Har bir propozitsiyada birdan ortiq presuppozitsiya mavjud bo‘ladi va bu presuppozitsiyani yuzaga chiqarishda grammatik vositalar yordam beradi. Masalan, *Kecha majlisga men ham bormadim.* Uning propozitsiyalari: *Majlis kecha bo‘lgan. Majlisga sen bormagansan* ham yuklamasi orqali qo‘shimcha mazmun anglashilmoqda.

Presuppozitsiya gap tashqi strukturasida moddiy ko‘rinishini to‘liq namoyon qilmaydi. Ammo uning tashqi signallari – ishora vositalari, tabiiyki, sintaktik strukturadan o‘rin oladi[6]. Matndagi propozitsiyani mantiqiy tahlil qilish asosida presuppozitsiyani

[1] Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап. ЎТА. – Тошкент, 1986. №6. – Б. 28.

[2] Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. № 6. – Б. 42.

[3] Эрназарова М. С. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида: Филол. фанлари докт.(DsC) диссертацияси автореф. – Самарқанд, 2018.

[4] Бурханов З.Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиклар прагматикаси. Филология фанлари номзодлик диссертациясига автореферати. – Тошкент, 2008.

[5] Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап. Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. №6. – Б. 28-42.

[6] Бурханов З. Б. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиклар прагматикаси: Филол. фанлари д-ри…..дис. автореф. – Тошкент, 2008.

aniqlab olish mumkin bo‘ladi. Masalan, *Boqchaning kunbotari bilan xarobazor imoratlarni yonlab yurdi. (A.Qod.* «*O‘tkan kunlar*»*).* Ushbu sodda gap bir nechta presuppoziyaga ega: 1*. Imoratlar boqchaning kunbotarida joylashgan*; 2. *Imoratlar –xarobazor*;

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, presuppozitsiya ma’lum matn ifodalayotgan propozitsiyani to‘g‘ri tushunilishiga imkon beradigan so‘zlovchilar o‘rtasidagi «bilishning umumiy fondi», «oldindan bilishning jami» sifatida belgilanadi. Har qanday propozitsiyani «ochish»da ushbu jarayon haqida uni biluvchilar o‘rtasida oldindan bu haqida ma’lumot yoki «sulh» bo‘lishi lozim. Ya’ni presuppozitsiyada xabar beruvchining shunchaki xabar bermayotganligi, uning yana nimagadir ishora qilayotganligini tinglovchi oldindan bilishi muhim:

– Siz o‘shami?

– Men o‘sha, – dedi bek....

– Ko‘zlarimga ishonmayman, – dedi.

Otabek ko‘zlarini to‘ldirib qarab:

– Men ham, – dedi...

– Kutilmagan baxt, – dedi....

(A.Qod. «*O‘tkan kunlar*»*).*

«O‘tgan kunlar»dagi barchamiz uchun tanish bo‘lgan Kumush va Otabek suhbatidagi «kutilmagan baxt» nimaligi ularning o‘zlariga tushunarlidir. Asardan ma’lumki, Kumush turmushga chiqishidan oldin suvning bo‘yida Otabek bilan to‘qnash keladi va o‘zi bilmagan holda uni yoqtirib qoladi. Ammo oradan oz vaqt o‘tib otasining begona bir yigitga turmushga uzatayotganidan ko‘ngli g‘ash bo‘ladi. Bir ko‘rishdayoq sevib qolib sovchi yuborgan Otabek, ota-onasining roziligi bilangina turmushga chiqayotgan Kumush (kuyovning Otabek ekanligini to‘ydan keyin biladi) va ularning to‘ydan keyingi birinchi suhbati – ushbu matn presuppozitsiyasini ochishga yordam beradi.

Albatta, presuppozitsiya ayrim holatlarni hisobga olmaganda, nisbiy universal kategoriyadir, ya’ni u to‘liq universal kategoriya sifatida qaralishi mumkin emas. Ammo tashqi olam haqidagi umumiy bilimlarning deyarli hamma xalqlar yaqinligidan kelib chiqilsa, presuppozitsiya universal kategoriya sifatida baholanishi mumkin, lekin bu bilimlar ichida qaraluvchi madaniyatlar, tarixiy sharoitlar, urf-odatlar, turmush sharoitlari, milliy mentalitet qarashlar kabilarning har xilligi presuppozitsiyaning nisbiy universal kategoriya ekanligini ko‘rsatadi[1]. «O‘tgan kunlar» asaridan olingan yuqoridagi parcha ushbu fikrimizga misol bo‘la oladi.

Presuppozitiv tahlilni bir qator tilshunos olimlar ishlarida kuzatishimiz mumkin bo‘lsa-da, lekin darak gaplarda bu borada hali yetarlicha ishlar qilinmagan.

Darak mazmunini ifodalayotgan sodda gap grammatik jihatdan tahlil qilinganda, bitta xabar, ma’lumot beradi (har bitta sodda gapda bitta ma’lumot anglashiladi). Masalan, *Nihoyat mol bozoriga etib keldik (O‘.Hoshimov).* Ushbu misolni presuppozitiv tahlil qilaylik. Presuppozitiv tahlilda ushbu darak gap zamirida bir qancha botiniy ma’no ifodalanadi:

1. *Mol bozoriga etib kelguncha ancha qiynaldik.*
2. Mol bozori ancha uzoqda edi.

Presuppozitsiyani aniqlashda, shuningdek, uning strukturasi ham muhimdir. Kommunikativ birliklarning bu jihatlarini aniqlashda lingvistik vositalarning bir qancha turlari, jumladan, lingvistik vositalar va sintaktik vositalar doirasida amalga oshirildi. Lingvistik vositalarning har biri, o‘z navbatida, yana bir qancha turlarga bo‘linadi. Jumladan,

1. Lingvistik vositalar mustaqil va yordamchi so‘z turkumlarini o‘z ichiga oladi.

– *Ot so‘z turkumi va uning kategoriyalari*. *Men – Onaman* (mening farzandlarim bor; ona – shaxs oti) *Kundan-da go‘zaldir, oydan-da go‘zal.* (presuppozitsiyalari: *kun – go‘zal, oy – go‘zal.* ; -dan kelishigi va –da(ham) yuklamasi); *Suv muzday edi* (presuppozitsiyalari: suv – o‘ta sovuq, muz –o‘ta sovuq; -day – o‘xshatish shakli);

– *sifat so‘z turkumi*. *Akam haliyam bo‘ydoq* (presuppozitsiyalari: mening akam bor, men ham haligacha uylanmadim yoki men allaqachon uylanganman, akam uylanmagan; bo‘ydoq – sifat);

– *olmosh so‘z turkumi*. *U meni tanladi* (presuppozitsiyasi: seni emas, boshqani emas; men – olmosh);

– *ravish so‘z turkumi*. *Bizning sinf doim bir qadam oldinda* (presuppozitsiyasi: boshqa sinflar orqada; oldinda – ravish);

– *yuklama*. *Bizning Marg‘ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan-ku, biz bilmay yurg‘an ekanmiz-da* (A.Qodiriy **«**O‘tgan kunlar**»**). (presuppozitsiyalari: toshkentlik kelinimiz go‘zal, marg‘ilonlik kelinimiz ham go‘zal; ammo buni boshqa ma’noda ham tushunish mumkin. Ushbu propozitsiya *Marg‘ilonda ham go‘zal qizlar bo‘lar ekan-da mazmunida ham ifodalanishi mumkin*. ham – yuklama); *Faqat seni sevaman* (presuppozitsiyasi: boshqani sevmayman; faqat – yuklama);

– *ko‘makchi.* Yig‘ilishda muhim masalalardan tashqari qutlovlar ham bo‘lib o‘tdi (presuppozitsiyalari: yig‘ilish bo‘ldi, yig‘ilishda muhim masalalar ko‘rildi, yig‘ilishda qutlovlar bo‘ldi; tashqari – ko‘makchi);

– Shu o‘rinda leksik vositalar sifatida so‘zning lug‘aviy ma’nosi ham presuppozitsiyadagi vazifasini aytib o‘tish joiz. Presuppozitsiya masalasida nafaqat gapning, balki so‘zning lug‘aviy ma’nosi ham katta

[1] Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. №6. – Б. 28.

rol o‘ynaydi. U. Rahimov omonimiya, sinonimiya, antonimiya hodisalari ham presuppozitsion tahlil etilsa, ayrim o‘ziga xos qirralari ochilishi[1]ni aytib o‘tadi. N.D.Arutyunova bu borada quritmoq fe’lini misol keltirib, unda xo‘llik ma’nosi anglashilib turilishiga ishora qiladi[2]. A.Nurmonov *uchmoq* so‘zini misol tariqasida keltirib, uning presuppozitsiyasi *Samolyotda keldim* ma’nosiga teng: *Men Toshkentdan Moskvaga uchdim*[3]. Shuningdek, lug‘aviy ma’nosiga ahamiyat berishimiz mumkin bo‘lgan shunday leksemalar borki, ular avtomatik tarzda kontekstda presuppozitsiyaga signal qiladi. Masalan, kontekstda aka leksemasining qo‘llanilishi ukaning ham mavjudligiga, ona so‘zining qo‘llanilishi farzand so‘ziga ishora qiluvchi, signal beruvchi leksemalardir. Presuppozitsiyani leksik jihatdan tahlil qilish bu alohida mavzu bo‘lib, bizning ishimizga doir emas va bu borada ko‘p to‘xtalmaymiz.

1. Darak gaplarda presuppozitsiyani sintaktik vositalar orqali aniqlash:

– *aktuallashtirish.* Sodda gaplarda presuppozitsiyani aniqlashda gap bo‘laklarining tartibi juda muhim. 1**.** *Bu erda men boshliqman*. 2. *Bu erda boshliqman men. 3. Men bu erda boshliqman.* Birinchi gapda boshliqning kim ekanligi muhim bo‘lsa, ikkinchi gapda bu erda boshliqman, oddiy xodimmasman degan ma’noni anglatmoqda. Uchinchi gapda men bu erda boshliqman, boshqa joyda emas kabi zoxiriy ma’nolarni anglatgan. Grammatik vositalar, asosan presuppozitsiyani aniqlashda ahamiyatlidir.

Tagma’noni tahlil qilishda kontekst muhim. Darak gaplarda tagma’noning ifodalanishi bir qarashda presuppozitsiyaga ishora qilsa-da, ammo kontekst uning farqini ochib beradi. «Shaytanat»dagi ushbu misolni ko‘raylik:

– *Bunchalik past ketmang. Arzimasangiz o‘zim kelmas edim.*

Elchin bu gapdan «*Men uncha-buncha odamni taklif etmayman*»*, – degan ma’noni uqdi. U Asadbekning maqsadini anglaganday edi. Elchin taklif zamirida qandaydir qitmirlik yotganini fahmladi-yu, qisqa fursatda o‘sha* «*qandaydir*» *nima ekanini anglay olmadi.*

– Katta boshingizni kichik qilib kelibsiz, biz nima derdik. Kasbimiz yaxshilarga xizmat qilish.

Hosilboyvachchaning yuzini jilmayish epkini silab o‘tdi. Bu quvonish emas, g‘olib odamning mag‘rur jilmayishi edi. (T. Malik «*Shaytanat*»*).* Kontekstda *Men uncha-buncha odamni taklif etmayman* – presuppozitsiyani anglatmoqda; Hosilboyvachchaning Elchinni to‘yga taklif qilishidan asl maqsad uni hurmat qilganidan emas, balki shu yo‘l bilan Asadbekni haqorat qilish – hukm tanasidagi mazmun; Elchin «qandaydir» g‘ayir maqsad borligini biroz fahmlagan. O‘sha «qandaydir» g‘ayir maqsad so‘zlovchi va tinglovchi uchun – umumiy bilish xazinasi bo‘lsa, Asadbek tomonidan (to‘yga bormaslik haqida) ogohlantirilgan Elchin uchun esa maxsus bilimlar orqali tushiniluvchi yashirin hukm; *Bu quvonish emas, g‘olib odamning mag‘rur jilmayishi edi* – zohiriy uzvlar orqali emas, avvalgi matn orqali tushuniluvchi matn. Ya’ni Hosilboyvachcha xursandligi Elchinning aynan hozirgi javobi tufayli emas, uning quvonishiga oldingi vaziyatlar, ziddiyatlar va bu ziddiyatlarda o‘zini g‘olib his qilish tuyg‘ulari sabab bo‘lmoqda.

Umumiy aytganda, nutqiy jarayon ishtirokchilarining suhbat matni umumiy bilish xazinasi, oldindan bilishning jami, matn ostidagi ma’no, zohiriy uzvlar ishorasi, matn ichidagi yashirin mazmun, lingistik bilim orqali anglashiluvchi ma’no, maxsus bilim orqali tushuniluvchi yashirin hukm kabi tagma’no kategoriyalarining barcha uzvlari bilan **«**to‘yintirilgan**»**.

Presuppozitsiya va tagma’no badiiy matnning mazmuniy qatlamini boyitadi. Ular yordamida muallif yashirin ma’nolarni ifodalaydi, qahramonlarning ichki kechinmalari, ijtimoiy va ma’naviy qarashlari ochiladi. O‘zbek adabiyotidagi misollar hamda xorijiy nazariy qarashlar asosida ko‘rish mumkinki, presuppozitsiya badiiy matn tahlilida muhim vosita hisoblanadi.

Rezyume. Ushbu maqolada badiiy matnlarda presuppozitsiya hodisasi nazariy va amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilindi. Maqolada presuppozitsiya tushunchasining falsafadagi kelib chiqishi, tilshunoslikka kirib kelishi va G. Frege, N.D. Arutyunova, V. Gak, A. Nurmonov, Sh. Safarov kabi olimlarning qarashlari keng yoritildi. Shuningdek, o‘zbek adabiyotidan olingan misollar orqali presuppozitsiyaning matn osti ma’nolarni ochish, qahramonlarning ichki dunyosi va ijtimoiy qarashlarini namoyon etishdagi ahamiyati ko‘rsatildi. Tadqiqotda presuppozitsiyaning turli grammatik vositalar orqali yuzaga chiqishi, uning propozitsiya va tagma’no bilan aloqasi ham ko‘rsatib berilgan. Umuman olganda, maqola presuppozitsiyaning badiiy matn tahlilidagi metodologik ahamiyatini asoslab beradi.

[1] Раҳимов У. Кўрсатилган манба. – Б. 4.
[2] Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысль. СССР, Ин-т языкознания. – М.: Наука, 1976. – С. 115.
[3] Нурмонов А. ва б. Кўрсатилган манба. – Б.115.

Resume. This article provides a comprehensive theoretical and practical analysis of presupposition in literary texts. It traces the origin of the concept in philosophy, its adoption into linguistics, and its interpretation by scholars such as G. Frege, N.D. Arutyunova, V. Gak, A. Nurmonov, and Sh. Safarov. Using examples from Uzbek literature, the study demonstrates how presupposition helps to reveal implicit meanings, the inner world of characters, and their social attitudes. The research also highlights the role of various grammatical means in forming presuppositions and explores their relation to propositions and implicatures. Overall, the article substantiates the methodological significance of presupposition in the analysis of literary texts.

Резюме. В статье подробно рассмотрено явление пресуппозиции в художественных текстах с теоретической и практической точек зрения. Анализируется происхождение понятия в философии, его проникновение в лингвистику и трактовка в трудах Г. Фреге, Н.Д. Арутюновой, В. Гака, А. Нурмонова, Ш. Сафарова и других исследователей. На материале узбекской литературы показано, что пресуппозиция играет важную роль в раскрытии подтекста, выражении внутреннего мира персонажей и их социальных установок. В исследовании подчеркивается роль различных грамматических средств в формировании пресуппозиций, а также связь данного явления с пропозицией и имплицитным смыслом. В целом, статья обосновывает методологическое значение пресуппозиции в анализе художественного текста.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TOG'AY MUROD NASRIY NUTQIDA METAFORANING STATISTIK TAHLILI

Xolnazarov Umid Erkinovich,
Termiz davlat universiteti,
o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ta'kidlash kerakki, olamni idrok etishning har bir til jamoasi ongida tarixan shakllangan, barqarorlashgan va ayni shu jamoa uchun xos bo'lgan odatiy va majburiy usullari majmui olamning lisoniy manzarasini yuzaga keltiradi. Olamning lisoniy manzarasi dunyoni idrok etish va konseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usullari yig'indisi[1] o'laroq, tushunchalar maydoni ichida, asosan, qaysi madaniy nom (metafora), lingvomadaniy kod[2] (antropomorf kod, zoomorf kod, ornitomorf kod, fitomorf kod, demonomorf kod, texnomorf, teomorf kod) ustuvor ahamiyatga ega ekanligi T.Murod qissalarida lisoniy va mualliflik metaforalarining konseptual asosida namoyon bo'ladi.

Masalan, *takasoqol* uzual metaforada T.Murod soqoli qalin, yuzining iyak qismini quyuq qoplagan Bo'ri polvonning tashqi qiyofasini obrazli gavdalantirgan. Bu tushuncha o'zbek lingvomadaniyatida turg'un o'xshatish sifatida baholanadi va shu o'xshatishning negizida zoomorf kod metaforik mazmun kasb etadi. Misolga e'tibor bering: «Keng ham do'ng peshonasini, turtib chiqqan yonoqlarini siladi. *Takasoqol*ni

[1] Худойберганова Д. Тил тафаккур маданият. – Тошкент: Нодирабегим, 2020. – Б. 30.

[2] Lingvomadaniy kod – ushbu terminni fanda madaniyat kodlari termini bilan aralash qo'llash holatlari kuzatiladi. Lingvomadaniy kod madaniyat kodining verballashgan ko'rinishidir. Ma'lumki, verbal tilda har qanday narsani ifodalash mumkin. Verbal til o'ziga madaniyatning obrazli kodlarini singdiradi. Bunda kodning ifoda planida o'zgarish sodir bo'ladi va madaniy kodlar verballashib, lingvomadaniy kodga aylanadi. Shu sababdan uni lingvomadaniy kod deb ataganimiz ma'qul ko'rinadi. Bu haqda qarang: Савиский В.М. Лингвокультурные коды: к обоснованию понятия // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Лингвистика. – №2. – С. 57; Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалс. док-ри дисс... – Тошкент, 2020. – Б. 62-63.